HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

OPPORTUNITIES FOR THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN LITERATURE CLASSES

Khujayeva Mokhinur Tulqinovna
2nd year master's student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
mokh.khujaeva@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari haqida so‘z yuritish, zamonaviy ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Adabiyot darslarida bu texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning diqqatini jalb etishda, balki ularning adabiy asarlarni chuqurroq tushunishida ham katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: adabiyot, raqamli texnologiyalar, video materiallar, ta’lim platformalari, ko‘nikma, materiallar.

Аннотация: Обсуждение возможностей использования цифровых технологий на уроках литературы является одним из важных аспектов современного образовательного процесса. Цифровые технологии создают новые возможности в сфере образования, делая процесс получения знаний для учащихся более интересным и эффективным. Использование этих технологий на уроках литературы имеет большое значение не только для привлечения внимания учащихся, но и для более глубокого понимания ими литературных произведений.

Ключевые слова: литература, цифровые технологии, видеоматериалы, образовательные платформы, навыки, материалы.

Abstract: Discussing the possibilities of using digital technologies in literature lessons is one of the important aspects of the modern educational process. Digital technologies create new opportunities in the field of education, making the process of acquiring knowledge for students more interesting and effective. The use of these technologies in literature lessons is of great importance not only in attracting students’ attention, but also in their deeper understanding of literary works.

Keywords: literature, digital technologies, video materials, educational platforms, skills, materials.

Adabiy ta’limda adabiyot o‘qitish orqali o‘quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy-estetik did, keng dunyoqarash kabi tushunchalar va kitobga, badiiy asarga bo‘lgan muhabbat hissi oshadi. Zero, badiiy adabiyot inson qalb go‘zalligini, dilidagi ezgulikni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Zamonaviy adabiyot darslarida milliy hamda jahon adabiyoti vakillarining durdona asarlari o‘rin olgan bo‘lib ular, asosan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta‘limning barcha tizimlarida faol qo‘llanilmoqda, shuningdek ta‘lim jarayonini tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda barcha ta’lim tizimlarida, jumladan, maktabgacha ta’lim bosqichlaridan oliy ta’limgacha ham raqamli texnologiyalar orqali darslarni tashkil

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

etish jamiyatda munosib o‘ringa ega. Bundan tashqari, dars jarayonlarining samaradorligini oshirishish maqsadida yoshlar o‘rtasidagi raqobat masalasi keskin ko‘tarilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlar fan va texnika,

sport va intellektual salohiyat, kreativlik tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot

sohalarida dunyo miqyosida o‘z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta‘lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda. Bugungi kunda raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan yoshlar o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlariga bog‘liq masalalar tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda. Taraqqiyotga erishishimizda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur va shart. Bugun barcha sohalarga axborot texnologiyalari shiddatli kirib bormoqdaki, pedagoglarimizdan ham bu jarayonda faollikni oshirishlari talab etiladi.[1]

Ta’limda birdaniga raqamli texnologiyalarga o‘tish murakkab jarayon, albatta. Ya’ni internet tarmog‘ini yaxshilash, mobil aloqalarni shu bilan birga o‘quvchi yoshlarga axborot kommunikatsiya texnologiyalarida erishilayotgan yutuqlarni o‘rganishiga zamin yaratishimiz zarur. Axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlash orqali o‘qituvchilarning ham kasbiy mahoratini oshirishga sharoit yaratish lozim. Shuningdek, dars jarayonida internet orqali bajariladigan multimediyali topshiriqlardan foydalanish, taqdimotlar yaratish o‘quvchilar uchun qiziqarli jarayon bo‘lib, dars samaradorligining yuqori bo‘lishiga, mavzuning tez va oson o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Yildan-yilga yangilanib borayotgan adabiyot o‘qitish metodikasi qadimiy va boy tajribaga ega bo‘lgani holda, dunyodagi eng ilg‘or yondashuvlar asosida turli metod va usullar bilan boyib bormoqda. Metodist olimlar adabiyot o‘qitishning eng samarador usullarini ta’limga olib kirish orqali adabiyot darslarining sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Bu borada yangilanayotgan adabiyot dastur va darsliklarini keltirib o‘tish kifoya.

Maktab darsliklarini va o‘qitish usullarini yangilash haqida muhtaram

Prezidentimiz o‘z nutqlaridan birida shunday degan edi: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, o‘zgarmaydi”.[2]

Adabiyot o‘qitishda media vositalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonida dolzarb mavzu hisoblanadi. Hozirgi vaqtda adabiyot o‘qitishda media vositalarining qo‘llanilishi deganda, dars jarayonini turli platformalar, materiallar va vositalar orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Dars kechimida audiovizual vositalardan foydalanishning foydali jihatlari haqida gap borar ekan, bir jihatni

---

[1] Rasulova.R.B.Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.Republican Scientific and Practical Conference.October 20, 2023.341-348bet.

[2] Abdullayeva.F.Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni.10-13bet

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Ushbu vositalar asosida shakllangan ilmiy-tarbiyaviy baza bugungi kunda uncha-muncha tilga tushgan, yaqin o'tmishda boshdan kechirganimiz pandemiya davrida zaruratga aylangan masofaviy ta'lim uchun ham katta manba bo'lib xizmat qiladi. Masofaviy ta'limning yutuq va kamchiliklari haqida ozmi-ko'pmi gapirilmoqda, lekin nima bo'lganda ham, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakli sifatida u mavjud va asosiysi, bunday ta'limga ham ehtiyoj bor. Bu borada atoqli adabiyotshunos, pedagog olim Qozoqboy Yo'ldoshev, jumladan, shunday deydilar: "... Hamonki, masofadan o'qitish ham pedagogik faoliyatning zamon ilgari surgan bir ko'rinishi ekan va ta'limning bu shakli nafaqat ayni paytlardagi singari pandemiya yoki o'zgacha ekstremal holatlarning oqibati, balki ilm taraqqiyotining tabiiy natijasi o'laroq paydo bo'lgan va borgan sari rivojlanib hamda takomillashib borayotgan ekan, tadqiqotchilar oldida bu ijtimoiy-ilmiy fenomenga doir qonuniyatlarni aniqlash vazifasi dolzarb bo'lib turadi".

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun qulay bo'lgan

vaqtda va joyda adabiyotga oid materiallarga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Elektron kitoblar, onlayn kutubxonalar, audiokitoblar va video darsliklar o'quvchilarga an'anaviy darslardan tashqari qo'shimcha manbalarni o'rganish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, interaktiv ta'lim platformalari va dasturlar adabiyot darslarini yanada jonli va interaktiv qiladi. Masalan, o'quvchilar matnlarni tahlil qilish, muallifning uslubi va asarning mazmunini chuqurroq anglash uchun turli xil testlar, viktorinalar va o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, chunki o'quvchilar o'z bilimlarini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.[3]

Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot o'qitishda media vositalaridan foydalanish hozirgi kunda jadal rivojlanib, ta'lim jarayonini an'anaviy usullardan texnologik inqilob yo'liga o'tkazishga katta hissa qo'shmoqda. Asosiy maqsad — ta'limni ko'proq interfaol, qiziqarli va samarali qilishdan iborat. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar adabiyotga oid loyihalar yaratishlari mumkin. Masalan, ular o'zlari sevimli asarlari asosida video taqdimotlar, animatsiyalar yoki hatto qisqa filmlar tayyorlashlari mumkin. Bu turdagi faoliyat o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, bu jarayonda o'quvchilar jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham egallaydilar, chunki ko'plab raqamli loyihalar guruhda bajariladi.

Raqamli davr adabiyot ta'limini qayta aniqlagan ko'plab vositalar va manbalarni olib keldi. Elektron kitoblar, Audiokitoblar va onlayn ma'lumotlar bazalari badiiy matnlarni har qachongidan ham qulayroq qildi. Ushbu siljish talabalarga turli xil ta'lim imtiyozlarini hisobga olgan holda bir nechta formatdagi adabiy asarlar bilan shug'ullanishga imkon berdi. O'qituvchilar raqamli texnologiyalarni turli yo'llar bilan o'zlashtirdilar. Virtual kitob klublari, munozarali forumlar va veb seminarlar talabalarning adabiyot va bir-biri bilan o'zaro munosabatlari uchun dinamik platformalar yaratdi. Gamifikatsiya, interaktiv viktorinalar va sun'iy intellektga asoslangan o'qishni tushunish vositalari adabiyot darslarini qiziqarli va shaxsiylashtirdi. Onlayn yozish ustaxonalari va hamkorlikdagi platformalar ijodkorlik va tengdoshlarni o'rganishga yordam berdi.[4]

---

[3] Sabriyev.A.A.Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o'qitishda raqamli texnologiya va audiovizual vositalardan foydalaninshning joriy holati.Noyabr2024.https://doi.org/10.5281/zenodo.14225775.237-240bet.

[4] Abdullayeva.N.N.Adabiyot darslarida raqamli ntexnologiyalarni tatbiq etish tendensiyalari.International scientific journal «Modern science resesarch» Volume3 / ISSUE 1 / UIF:8.2 / Modernscience.UZ.2024.225-228bet

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Adabiyot darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy maktab o‘quvchisining ishtiyoqini oshiradi, uning kognitiv qiziqishi va mustaqilligini rag‘batlantiradi.

- talabalarning ijodiy va izlanish qobiliyatini rivojlantiradi, faolligini oshiradi;
- o‘quv jarayonini jadallashtirishga, o‘quv materialini yanada mazmunli o‘rganishga, o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalarini egallashga, tizimli bilimlarni

tizimli bilimlarga aylantirishga yordam beradi;

- talabalarning bilim faolligini va fanga qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi;
- talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, o‘rganilayotgan material bilan aks ettiruvchi harakatlar darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar:

- test topshiriqlarini avtomatik tekshirish: siz oldindan kvar kodini yaratishingiz mumkin, va talabalar uni o‘tib, savollarga javob bergandan so‘ng, taklif qilingan mavzu bo‘yicha o‘z bilimlariga mos keladigan ball oladilar;
- interaktivlik (guruhdagi barcha talabalarni bir vaqtning o‘zida faol ishlarga jalb qilish, bu vaqtni tejaydi). Topshiriqda uzrli sababga ko‘ra darsga kela olmagan talabalar ham qatnashadilar.
- loyiha bo‘yicha guruhli hamkorlik (bir guruh talabalar tomonidan birgalikda tarqatmalar,taqdimotlar, o‘yinlar, boshqotirmalar, krossvordlar va boshqalarni yaratish qobiliyati)
- xilma-xillik (ko‘p va hatto cheksiz miqdordagi shunga o‘xshash mashqlarni tezda yaratish qobiliyati – o‘qituvchi vaqtini tejash, talaba uchun ta’lim sifatini oshirish).

Ayni paytda raqamli ta’lim resurslarining ko‘plab turli to‘plamlari yaratilgan, jumladan, maxsus ishlab chiqilgan fan dasturlari, testlar, videodarslar, tematik to‘plamlar, vositalar va ta’lim jarayonini tashkil etish uchun dasturiy ta’minot hisoblanadi.[5]

Shunday qilib, adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari juda keng va ko‘p qirrali. Ular o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi, o‘qituvchilarga esa darslarni yanada sifatli tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun zarur sharoitlar yaratish va o‘qituvchilarni malaka oshirishga e’tibor qaratish muhimdir. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar ta’lim sifatini oshirishga va kelajak avlodni yanada bilimli va madaniyatli qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova.R.B.Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.Republican Scientific and Practical Conference.October 20, 2023.341-348bet.
2. Abdullayeva.F.Adabiy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni.10-13bet
3. Sabriyev.A.A.Rivojlangan mamlakatlarda adabiyot fanini o‘qitishda raqamli texnologiya va audiovizual vositalardan foydalaninshning joriy
4. holati.Noyabr2024.https://doi.org/10.5281/zenodo.14225775.237-240bet.
5. Abdullayeva.N.N.Adabiyot darslarida raqamli ntexnologiyalarni tatbiq etish tendensiyalari.International scientific journal «Modern science resesarch» Volume3 / ISSUE 1 / UIF:8.2 / Modernscience.UZ.2024.225-228be

[5] Uzoqova M.A.Raqamli texnologiyalar orqali ona tili ta’limni modellashtirish va tashkil etish mexanizmlari."Экономика и социум" №12(127)-1 2024 www.iupr.ru.530-532bet